

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.M.Qandov	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
U.J.Mansurov	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
M.M.Alimova	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi	312
J.Museyibzada	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
A.A.Azizov	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida)	324
A.T.Ahmedov	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	328
D.A.Urinbayeva	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
T.Ch.Xoliyarov	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi	340
X.X.Mamajonov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar	347
I.S.Yusupov	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi	351
F.K.Jumanazarova	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
U.X.Gulmatov	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni	359

ADABIYOTSHUNOSLIK

U.B.Matmurotova	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xhatish misolida.....	364
Sh.A.Safarova	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish	369
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar	374

TILSHUNOSLIK

A.B.Uralov	
Til sathlarida nomutanosiblik	381
A.Sh.Muxamadiyev	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida	393
U.Sh.Turaeva	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
Y.T.Rakhmonkulova	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages	401
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli	405
M.O.Usarova	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari	413
Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер	417
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



UO'K: 334.7

1920-1930 YILLARDAGI KOOPERATSIYA TIZIMI SISTEMASI

КООПЕРАТИВНАЯ СИСТЕМА В 1920-1930 ГГ

SYSTEM OF COOPERATION IN 1920-1930

Alimova Mohichehra Muzafarovna 

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda boy-quloglarga qarshi kurash olib borish va 1925-1929 yillarda Zarafshon vohasida majburiy amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosatining salbiy oqibatlari to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar berilib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Аннотация

В данной статье дана достаточная информация и сделаны научные выводы о негативных последствиях борьбы с богачами в Узбекистане и политики коллективизации, проводившейся в Заравшанском оазисе в 1925-1929 годах.

Abstarct

This article provides sufficient information and draws scientific conclusions about the negative consequences of the fight against the rich in Uzbekistan and the collectivization policy carried out in the Zarafshan oasis in 1925-1929.

Kalit so'zlar: Yer-suv islohoti, agrar inqilob, jamoa xo'jaliklari, kooperatsiya, kolxoz, sovxozi, kontraktatsiya, o'rtaohol dehqon, ma'muriy buyruqbozlik, kommunizm.

Ключевые слова: Земельно-водная реформа, аграрная революция, коллективное хозяйство, кооперація, колхоз, совхоз, контрактация, середняк, административная команда, коммунизм.

Key words: Land and water reform, agrarian revolution, collective farming, cooperation, collective farm, state farm, contracting, middle peasants, administrative command, communism.

KIRISH

Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lgan 1925-1929 yillarda amalga oshirilgan agrar islohot yoki agrar inqilob o'z mazmuni va oqibatlariga ko'ra ziddiyatlari tusda bo'lgan. Masalan, uning natijasida bir tomondan yersiz kambag'al dehqonlarning bir qismi yerga ega bo'lib, o'zbek qishloqlaridagi ijtimoiy ahvolni bir oz yaxshilagan bo'lsa, ikkinchi tomondan asrlar mobaynida o'zbek qishloqlarida shakllangan ijtimoiy psixologik tartib va milliy qadriyatlarning buzilishini boshlab bergen edi. Boshqacha qilib aytganda mazkur islohot o'zbek qishloqlarining butun ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga ham ijobiy ham salbiy ta'sir etgandi.

O'tkazilgan yer-suv islohoti o'zining butun mazmuni bilan badavlat xo'jaliklarni cheklashga hamda qishloqda sinfiy kurashni avj oldirishga qaratilgan edi. Islohot jarayonida yerni ijaraga olishning amaldagi iqtisodiy imkoniyatlari ma'lum darajada sekinlashdi. Yerni ijaraga olishning sinfiy jihatdan qoralash yo'lli oxir-oqibatda shunga olib keldiki, u amaliy jihatdan yo'qola boshladи. Islohotga qadar 42,4 foiz xo'jalik yerni ijaraga olgan bo'lsa, islohotdan so'ng 5,7 foizgina xo'jalik yerni ijaraga oladigan bo'ldi.[1]

Kompartiyaning islohotni amalga oshirishdan maqsadi kambag'al dehqon xo'jaliklarini yer bilan ta'minlab, uning iqtisodiy ahvolini yaxshilash emas edi. Asosiy maqsadi, avvalo qishloqda "sotsialistik ijtimoiy tuzum" ning moddiy asosi bo'lgan "jamoa" bo'lib, xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan. Aksincha u dehqonlarning yerga, mehnat qilish asboblariga, shuningdek, ish hayvonlariga, kreditga bo'lgan ehtiyojini qondirish o'rniga jamoa xo'jaliklari tashkil etish sur'atlarini jadallashtirishga, agrar sohadagi "sotsialistik sektor" ni mustahkamlashga e'tiborni qaratdi. Bu bilan agrar islohot yer-suvni milliylashtirishni asosan tugallab, qishloq xo'jaligini davlat monopoliyasiga olish uchun moddiy sharoitlarni ham yaratib oldi.

TARIX

Aynan shunday sharoitda mamlakat siyosiy rahbariyati kooperativ harakatni avj oldirishni dehqon xo'jaliklarini "sotsialistik rivojlantirish" yo'liga o'tkazishning eng ta'sirchan usuli deb hisobladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kooperativ tizimi o'ziga xos sinfiylikdan tashqari xususiyatga ham ega edi. Tan olish lozimki, yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida kooperatsiya bozor munosabatlarni tiklash va xo'jalik hayotini jonlantirishda muhim voqeа bo'ldi. Aytish joizki, kooperatsiya aholini mustaqil, hech kimga bog'liq bo'limgan ishlab chiqaruvchi subyektlar sifatida tashkil etgan taqdirdagina ijobjiy samara berishi mumkin edi. Ammo Kommunistik boshqaruv kooperatsiya orqali qishloq ommasini sotsialistik qurilishga jalb etishga harakat qilib, kooperativ harakatga bozor iqtisodiyotiga yot bo'lgan siyosiylashgan elementlarni kiritdi va kooperativ birlashmalarning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini chegaralab qo'ydi. Natijada xo'jalik yuritishning kooperativ prinsiplari siyqalashib ketdi. To'g'ri, kooperatsiyadagi sog'lom negizlar 1920-yillarning o'talarida ancha to'liqroq namoyon bo'lib, ixtiyoriylik prinsiplari va demokratik boshqaruv usuliga rioya etilgandi hamda qishloqda kooperatsiya jadal rivojlanagan edi. 1927-yilga kelib, kooperatsiyalarga birlashgan dehqon xo'jaliklari 55 foizni, 1929-yilga kelib esa, 81 foizni tashkil etgandi.

Kooperativ birlashmalarning davlat manfaatdor bo'lgan shakllari ko'proq rivojlangan. Masalan, 1927-yida O'zbekistonda 386 ta paxtachilik kooperativlari faoliyat ko'rsatgan.[2]

1925-yil boshlarida respublika hududida kooperativ tashkilotlarining faqat ikki turigina tashkil etildi. Bu – universal qishloq xo'jalik kooperativlari va matlubot jamiyatni kooperativlari edi.

1927-yilning fevraliga kelib, "O'zbekpaxtasoyuz" paxtachilik kooperatsiyasi, 1928-yilning martida "Kolxozsentr" va "Kolxoziitifoq", oktabrida "Chorvaittifoq" kooperatsiyalari tashkil etildi. Keyinroq bog'dorchilik – uzumchilik birlashmalari barpo etildi. 1928-yilning oxiriga kelib, 1888 ta paxtachilik, 442ta g'allachilik, 263 ta ipakchilik, 250 ta chorvachilik, 205 ta meva-uzumchilik va 223 ta meliorativ shirkat (kooperativ) lar faoliyat ko'rsatgan. Kooperatsiya tizimi vositasida xususiy sektor faoliyati tartibga solib turildi, tovar oboroti ta'minlandi, davlat krediti taqsimlandi, dehqonlarning xo'jalik yuritishga jalb etilishi amalga oshirildi. [3]

Ammo kontraktatsiya tizimi jiddiy kamchiliklar bilan faoliyat yuritdi va qishloq tovar ishlab chiqaruvchilariga doimo ham foydali bo'lmadi. Davlatning qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirishga bo'lgan monopoliyasini o'rnatishga yordam berdi. Oqibatda qishloq hayotiga mos bo'lgan kooperativ-jamoa xo'jalik tiplarini obyektiv zarurat shaklida izlash, tadrijiy tanlash mexanizmi izdan chiqib ketdi.

Natijada ma'murlarning taz'iqi ostida kooperatsiyaning eng oddiy shakllari tabiiy ravishda ancha murakkabroq shaklga o'tdi va agrar ishlab chiqarishning sotsialistik usulini mustahkamlash yo'lidan borildi. Bu yerga birgalikda ishlov berish shirkatlari (TOZ) tashkil etishdan qishloq xo'jalik artellari va sotsialistik jamoa xo'jaliklarining boshqa shakllariga o'tishda o'zining yaqqol ifodasini topdi. To'g'ri, dehqonlarning yakka xo'jaliklaridan yangi iqtisodiy siyosat sharoitidagi jamoa xo'jaliklariga o'tishi hali ommaviy ma'muriy-majburiy xususiyat kasb etmagan edi. Davlat uni kolxozlarga beriladigan imtiyozlar tizimi bilan, kolxozlarni birinchi navbatda qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlash orqali rag'batlantirdi. Ammo 1928-yildan boshlab kolxozlarni jadal sur'atlar bilan tashkil etish siyosati o'tkazila boshlandi. Shu yilda islohot jarayonida yerga ega bo'lgan 4382 ta xo'jalikdan 1125 tasi majburiy sur'atda qishloq xo'jalik artellariga birlashtirildi. Biroq bu holat Toshkent, Farg'on, Samarcand va Zarafshon vilotlarida yer-suv islohoti o'tkazilganida bo'limgan edi. [4]

Ayni vaqtida sovxoziylar ham tuzila boshlangan. Ularning soni 1927-yilning oxiridagi 41 tadan 1929-yilga kelib 66 taga yetgan edi, ular asosan paxtachilik xo'jaliklari bo'lgan. [5]

Qishloq xo'jalik artellarini tashkil etish Zarafshon viloyatida ham amalga oshirilgan. Ko'pincha bunday artellar yangi o'zlashtirilgan yerdarda tashkil etilgan. Masalan, 1927-yilning yanvar-fevral oylarida Xatirchi rayonida 555 kishi yangi yerdarga ko'chib borib, u yerda artellarga a'zo bo'lib ish boshlashgan. "Traktor", "Ketmon", "Omoch", "Birlik", "Kommuna", "Namuna", "Zarya", "Ravshan" nomli qishloq xo'jalik artellari faoliyatini boshlagan. Umuman, Zarafshon viloyati bo'yicha 60 ta yangi qishloq xo'jalik artellari tashkil etilgan edi. [6]

Vaqt o'tishi bilan xo'jalik qurilishida ma'muriy buyruqbozlik taz'iqi kuchayishi bilan iqtisodiy usullardan chekinish tobora kuchaya bordi. Ma'muriy- buyruqbozlik usullari tomon burilish

1927-1928 yillar chegarasida namoyon bo'ldi. Aynan shu davrda Stalin "yirik xo'jaliklar" masalasi asosan hal bo'ldi deb hisoblab, partiyani agrar sektorda mayda tovar negizini sun'iy tarzda chegaralashga va o'rtahol dehqonlarni uning moddiy omili sifatida iqtisodiy jihatdan bo'g'ishga yo'naltirgan edi. Buning oqibatida oradan ko'p vaqt o'tmay o'zbek qishloqlarida stalincha "yuqoridan bo'lgan inqilob" ning qonli to'foni aylanib, "favqulodda holat" zamonlari yetib kelgan edi.

XULOSA

1930-1931 yillarda qishloq xo'jaligini kooperatsiyaga birlashtirish jarayoni sun'iy ravishda jadallashtirilishi natijasida tashkil etilgan kolxozlardan chiqib ketish holatlari ham kuchaygan. Birgina Buxoro okrugida bir kun ichida 4815 ta xonadondan iborat bo'lgan 33 ta yangi kolxozi, 61 ta xonadondan iborat bo'lgan ikkita eski kolxozi tarqalib, saqlanib qolgan kolxozlardan 119 ta xonadon chiqib ketgan.

Qishloq xo'jaligini kooperatsiyalashtirish, kolxozlashtirish siyosatidagi majburiylik, yoppasiga kolxozlarga majburan kiritilishi, ixtiyorilik tamoyiliga rioxha etilmasligi oqibatida 1930-yilda O'rta Osiyo bo'yicha yangi tashkil etilgan 535 ta kolxozi tarqalib, 119415 ta xo'jalikka, 39 ta eski kolxozi esa 1698 ta xo'jalikka bo'linib ketgan. [7]

Kooperatsiyalashtirishning to'g'ri yo'lidan bormasligi, uning turlarini, shakllarini ma'muriy – buyruqbozlik mexanizmi bilan izdan chiqarish tufayli 1920-1930-yillarda amalga oshirilgan kolxozlashtirish tom ma'noda qishloq xo'jalik shirkatlari uchun maqbul yo'l bo'lmadi va davlat monopoliyasining o'rnatilishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Советское крестьянство. М., 1973, с.199.
- Ўз.Р.МДА, 88-фонд, 1-рўйхат, 1403-ийғма жилд, 120-121 варак.
- Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. Шарқ, 2000, 336-б.
- Юсупов Э.Ю. Переход к социализму минуя капитализм. М., 1987, с.170.
- Аминова Р.Х. История совхозов Узбекистана 1917-1960. Т., 1993, с. 22,33.
- Бухоро вилоят давлат архиви, 9-фонд, 2-рўйхат, 21-ийғма жилд, 13-15 варак; 151-фонд, 2-рўйхат, 141,214-ийғма жилд, 19, 24 варак.
- Ўзбекистон тарихи (1917-1991), Т., ФАН, 2019, 517-б.